

“YANGI O‘ZBEKISTONDA ASALARICHILIK TARMOG‘INING JADAL RIVOJANISHI”

Sulaymono‘v Hamro Ergashevich

Sayxunobod tuman 2-son kasb-hunar maktabining
asalarichi ishlab chiqarish ta‘lim ustasi

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada asalarichilik mahsulotlari va asalarichilik sohasining rivojlanishi haqida ma‘lumot beriladi. Asalarichilik sohasi qishloq xo‘jaligidagi ahamiyati tahlil qilinadi. Asalari mahsulotlari mum, asal suti, asalari zahari, yoritib berildi. Tabiiy asalning tarkibi inson organizmida ijobi ta‘sir qilishini yoritib berildi. Asalari oilasi va mahsulotlaridan vaqtida to‘g‘ri foydalanish chora-tadbirlari haqida to‘g‘ri yoritib berildi.

Kalit so‘zlar: Asalari oilasi, gulchang, ishchi asalari, ona asalari suti, Asalari zahari,

Asalarichilik qishloq xo‘jaligining ajralmas, muhim tarmog‘i bo‘lib, hisoblanadi. Asalarilar inson sog‘ligi uchun zarur bo‘lgan asal hamda xalq xo‘jaligida ishlatiladigan mum mahsuloti yetishtirib beradi. Arixonalarda meditsina sanoati uchun zarur bo‘lgan asalari suti, propolis hamda asalari zahari kabi mahsulotlar yetishtiriladi. Urug‘chilikda, sabzavot va mevalar hosildorligini oshirishda asalarilarning roli juda katta. Qishloq xo‘jalik o‘simliklarini asalarilar yordamida mukammal changlantirish yo‘li bilan hosildorlik oshiriladi, shu bilan bir qatorda ko‘p asal yetishtiriladi.

O‘zbekiston qit‘aning markazida va dengizlardan uzoqda bo‘lganligi sababli iqlimi o‘ta mu‘tadil, tabiiy- geografik sharoiti xilma-xil bo‘lib xarorati bo‘yicha viloyatlari va tumanlari bir-biridan farq qilib, ayrim xududlarida xarorat tez ko‘tarilishi va ekiladigan qishloq xo‘jalik ekinlari hamda yovvoyi holda o‘sadigan o‘simliklari ham xilma-xil bo‘lib, asalarichilikning rivojlanishiga mos keladi.

Jahon miqyosida aholining oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashda agrar sohaning o'rnini va ahamiyati kundan-kunga oshib bormoqda. Jumladan, mamlakatimizda hamda mavjud resurs va imkoniyatlardan oqilona foydalanib, hosildorlik va manfaatdorlikni yanada oshirish, sohaga ilm-fan yutuqlari hamda zamonaviy yondashuvlarini joriy etish dolzarb masaladir.

Muhtaram Prezidentimiz Mirziyoyev Shavkat Miromono'vich "Qishloq xo'jaligini ilmiy asosda yo'lga qo'ymas ekanmiz, sohada rivojlanish bo'lmaydi" deydi. Oliy Majlisga yo'llagan Murojatnomasida, kambag'allikni qisqartirish va qishloq aholisini daromadlarini ko'paytirishda eng tez natija beradigan omil bu qishloq xo'jaligida hosildorlik va samaradorlikni keskin oshirish ekanligi alohida ta'kidlab o'tadilar.

Rivojlangan mamlakatlarda asalarichilik tizimida innovasion texnologiyalarni qo'llash, jahon genofondiga mansub mashhur asalari zotlari va tiplarini yaratish, mahalliy zotlarni takomillashtirish orqali har bir asalari oilasidan kamida 50-60 kg gacha asal olish, ming turli xastaliklarga shifo bo'ladigan asalari mahsulotlari hosildorligini oshirishga erishilmoqda. Hech shubha yo'qki, asalarichilik tom ma'noda boylik, oilaga qut-baraka olib keladigan sohadir. Hovlisida asalari boqayotgan, uning naslchiligi, ilmi bilan shug'ullanayotgan kishilardan bir so'rang, foydasi qanday deng, ular havasingizni keltirib so'zlaydi, asaldan bir tatib ko'ring, deydi.

Ana shu kasb bilan siz ham shug'ullansangiz bo'ladimi, albatta bunga imkon bor.

Asalarining yana bir beminnat xizmati shundaki, ular o'simlik gullarini changlatish yo'li bilan, turli ekinlar hosildorligini 80 foizgacha oshiradi.

Keyingi yillarda respublikamizda aholining oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash, shu jumladan, sifatli asal mahsulotlari ishlab chiqarish hajmini ko'paytirish bo'yicha bir qator chora-tadbirlar qabul qilindi. Vatanimizda aholining asalarichilik sahosisida bilim saviyasini oshirish maqsadida Oliy o'quv yurtlarida va kasb-hunar maktablarida asalarichilik yo'nalishlari ochilib o'quvchilarga asalarichilik kasb sir asrorlari o'rgatilmoqda

Asalarichilik bilan elimiz qadimgi zamonlardan beri shug‘ullanib kelgan va bu ishda boy tajriba orttirgan. Bizlarga Beruniy, Ibn Sino va boshqa o‘tmishdagi buyuk olimlarimiz meros qilib qoldirgan kitoblarda asalarichilik mahsulotlari, ya’ni asal, propolis, asalari suti va boshqalarning turli dardlarga shifo bo‘lishi yozilgan.